

JAHON SAHNASIDA BOBURIYLARNING PAYDO BO'LISHI.
IBTIDO**Xolboyev Samandar Muhammadyoqubovich**

Toshkent Xalqaro Kimyo Universiteti Samarqand filiali 3-kurs talabasi

Annotatsiya: Sohibqiron Amir Temur vafotidan keyin boshlangan o'zaro urushlar, taxt uchun temuriy shohlar o'rtasidagi nizo yillar balki, asrlar davomida davom etdi. Bu kurashlar natijasida, asosan, shimoliy va g'arbiy hududlar mustaqil bo'lib, temuriylar qo'lidan chiqib ketdi. Bir necha yillar davomida Amir Temurning chevarasi Mironshohning nabirasi bo'l mish Sulton Abu Said Mirzo Abulkayrxon yordamida Movarounnahr toj-u taxt uchun kurashda g'alaba qozondi. Xuroson hukmdori temuriyshohlardan biri Abulqosim Bobur vafot etgach Xurosonni ham egallaydi. U o'n yildan oshiq vaqt davomida Movarounnahr va Xurosonni birlashtirib turdi. Uning vafoti yana taxt uchun kurash davom etishiga olib keldi. Bu kurashlar xalqning ham sillasini quritgan edi.

Kalit so'zlar: Sohibqiron Amir Temur, Temuriy shohlar, Movarounnahr, Xuroson, Abu Said Mirzo, Abulqosim Bobur, Abulkayrxon, Zahiriddin Muhammad Bobur, Umarshayx Mirzo, Farg'ona, Husayn Boyqaro, Hiro, Qobul, Panipat, Shayboniyxon, Himolay tog'i, G'aznaviy, G'uriylar, Xiljiylar, tug'loqlar, ziyodlar, Ibrohim Lo'diy, "Boburnoma".

Abu Said Mirzo tiriklik chog'ida o'g'li Umarshayx Mirzoga ya'ni Boburning otasiga Qobul va Farg'ona viloyatlariga hokim etib tayinlaydi. Umarshayx Mirzo erta vafot etishi bilanoq, hokimiyat 12 yoshli o'g'li Bobur Mirzo qo'liga o'tdi. (Amir Temurning beshinchi ajdodi bo'l mish Zahiriddin Muhammad Bobur 1483-yil 14-fevralda Andijonda tavallud topgan. Yoshlik chog'idanoq diniy bilimlar va jang san'atini puxta o'rgangan). "Boburnoma" asarida keltirilishicha, Bobur og'ir va falokatli sharoitda Farg'ona hokimi bo'ldi. U qanchalik qobiliyatli, aqli, tadbirli bo'lmasin, qancha mashaqqat chekmasin sodir bo'lgan ahvolni asrab qololmas edi. Qo'ldan ketayotgan Poytaxt--Samarqandni bir necha bor harakati bilan egalladi. U xoh muzokara stoli, xoh qurol kuchi vositasida qilgan uzoq urinishlari ijobiy natija bermaydi.

Oxir-oqibat Bobur 1504-yili 19 yoshida Qobulni zabit etib, u yerda qaror topdi. Sulton Husayn Boyqaro to'satdan vafot etishi temuriyzodalarning Movarounnahrda (Samarqand) taxtga o'tirgan Shayboniyxonga qarshi ittifoq tuza olmasligi ayon bo'ldi. To'g'ri Shayboniyxon vafotidan so'ng Bobur Samarqandni birmuncha egalladi. Lekin, uning qo'shinlari 1512-yil 28-apreldagi hal qiluvchi jangi va uning mag'lubiyati tamoman Samarqanddan ketishi Qobul va Hind diyorlarida qo'nim topishiga olib keldi.



MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Zahiriddin Muhammad Bobur Qobulda turgan paytda u yerni obodonlashtirish va qurilish ishlariga bosh qosh bo'ldi. Boburning Hind diyorlari tomon yurishi uning uchun o'z hududlarini kengaytirish va katta imperiya qurish niyatida ekanligini ko'rsatadi. U bu yurtda siyosiy beqarorlikdan foydalanib, yangi hududlarni zabit etishga intildi. O'zi hindlar tarixdan ming yillar mobaynida Himolay tog'laridan to Hind ummonigacha bo'lgan hududda yashagan bo'lib, hech qanday bosqinchilik yurishlari qilmagan. Aholisi esa, turli tillarda so'zlashgan, dini braxmanlar va buddizm bo'lgan. Mamlakat hududida musulmonlarning kirib kelishi o'rta asrlar tarixida hindlarning ahvolini tubdan o'zgartirdi. Musulmonlarning Hind diyoriga kirib kelishi Sulton Mahmud G'aznaviyning 1021-yilda egallashi bilan boshlangan. Bobur davrigacha esa oradagi vaqt besh yuz yilni tashkil etadi. Boburning bu hukmronligi tarixda "Hindistondagi temuriylar sulolası" yoki "Buyuk Mo'g'ul imperiyasi" deb ataladi. G'aznaviylardan so'ng Hindistonni G'uriylar, Xiljiylar, keyin esa Dehlida tug'loqlar (turkiy qabila) hukmronlik qilgan. Amir temurning shiddatli yurishi tug'loqlar sultanatini parchalab yuborgan. Shundan so'ng hududlar amaldor ziyodlar sulolasiga o'tgan. Bu sulola juda sustkashlik bilan katta hududlarni boshqargan. Bundan foydalangan afg'onlar Dehli hududini osonlikcha bosib oldi. Bu sulola davrida Bobur Hindiston o'lkasiga 4 marta harakat qilib ko'radi. Uning birinchi yurishi 1519-yildan boshlangan. Bobur Dehlida Ibrohim Lo'diyini 1526-yil 21-aprelda Panipat jangida tamomila yanchib tashladi. Panipat jangi 1526-yil Bobur 12 ming jangchi bilan dushmanga qarshi chiqqan. "Boburnoma" asarida keltirilishicha, "dushman qo'shini bir lak, balki ikki lak" deb taxmin qilingan. Lekin, ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Lo'diy qo'shirlari 50 ming va 1000 fil bilan jangga kirgan. Bu jangda Bobur qo'shinida jangovar aravalari va zampnaviy qurollar-to'plar va poroxli o'tochar qurollar bo'lgan. Jang so'ngida Ibrohim Lo'diyning 20 ming askari halok bo'lgan. Bu zafarlar Boburiylarning Hind o'lkasida o'z siyosatini mustahkamlashi va 332 yil vaqt davomida hukmronlik qilishiga olib keldi.

XULOSA

Hindiston tarixida yangi sahifa ochib bergen Boburiylar sulolası eng katta sulola bo'lib tarixda qolgan. Bu sulola haqida ma'lumotlar asosan, birlamchi manbalardan foydalanildi. To'g'ri, Boburiylar sulolasidan oldin turkiy va musulmon qabilalar Hind o'lkasini zabit etgan bo'lsada, lekin yuksak iz qoldira olmagan. Boburiylar davri dunyoda Eron safaviylaru bilan yaxshi siyosat olib borgan. U davrda Rus imperiyasi va Usmonli imperiyasi ham qudratli davlatga aylangan edi. Hindistonda ham turli millat, dinni boshqarish va ichki mo'tadillikni saqlash o'sha paytda yonib turgan olovni ushslashdek gap edi. Boburiylarning XIX asr o'rtalariga borib yakunlanishi inglizlarning to'laqonli Hindistonni o'z mustamlakasiga qo'shib olishi bilan yakunlanadi. Inglizlar siyosati Hindistonda yangi zamonni boshlab bersada, Boburiylar imperiyasi Hindiston tarixida asosiy bo'lak hisoblanadi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Z.M.Bobur. "Boburnoma", "Yangi asr avlodni" nashriyoti, 2015 Nashrga tayyorlovchi: Porso Shamsiyev
2. Gulbadanbegim Zahiriddin Muhammad Bobur qizi. "Humoyunnoma". Toshkent "O'zbekiston" 2016
3. Uilyam Erskin. Bobur Hindistonda. Bobur hukmronligi davridagi Hindiston tarixi. Toshkent. Cho'lpon nashriyoti

